Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 10 (2026) Published October 24, 2026

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS OF ORGANIZING MARKSMANSHIP TRAINING

Rajabov Rasulbek Ruziboevich

Head of the Combined Arms Training Department, Faculty of Combined Arms (ShG‘HO), Lieutenant Colonel

Abstract

The article analyses the theoretical foundations, regulatory and organisational requirements, and methodological approaches to organising marksmanship (fire) training sessions. It describes the stages of a session, didactic principles, safety requirements and forms of control, and compares the findings of foreign (U.S.) research with the practice of military education in Uzbekistan. The role of consistency, visualisation, an individual approach and the use of simulators in forming shooting skills is substantiated. The results may be used when planning marksmanship training in military educational institutions and in the system of pre-conscription military training.

Keywords

marksmanship training, military education, organisation of training sessions, live-fire exercises, safety, simulator, methodological analysis, skills and competencies.

OTISH TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI

Rajabov Rasulbek Ruziboevich

ShG‘HO fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarligi kafedrasi boshlig‘i, Podpolkovnik

Annotatsiya. Maqolada otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari, me’yoriy-huquqiy va tashkiliy talablari hamda uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Mashg‘ulotning bosqichlari, didaktik tamoyillar, xavfsizlik talablari va nazorat shakllari yoritilgan, xorijiy (AQSh) ilmiy tadqiqotlar tajribasi o‘zbek harbiy ta’limi amaliyoti bilan solishtirilgan. Otish ko‘nikmalarini shakllantirishda izchillik, ko‘rgazmalilik, individual yondashuv va trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalaridan harbiy ta’lim muassasalarida va chaqiruvgacha harbiy ta’lim tizimida otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini rejalashtirishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: otish tayyorgarligi, harbiy ta’lim, mashg‘ulotni tashkil etish, o‘quv-otish mashqlari, xavfsizlik, trenajyor, uslubiy tahlil, ko‘nikma va malaka.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИИ ОГНЕВОЙ ПОДГОТОВКИ

Раджабов Расулбек Рузибоевич

Начальник кафедры общевойсковой подготовки факультета общевойсковой подготовки (ShG‘HO), Подполковник

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы, нормативно-правовые и организационные требования, а также методические подходы к организации занятий по огневой подготовке. Раскрыты этапы занятия, дидактические принципы, требования безопасности и формы контроля; опыт зарубежных (американских) исследований сопоставлен с практикой военного образования Узбекистана. Обоснована роль последовательности, наглядности, индивидуального подхода и использования тренажёров при формировании навыков стрельбы. Результаты статьи могут быть использованы при планировании занятий по огневой подготовке в военных образовательных учреждениях и в системе допризывной военной подготовки.

Ключевые слова: огневая подготовка, военное образование, организация занятий, учебно-стрелковые упражнения, безопасность, тренажёр, методический анализ, умения и навыки.

KIRISH

Mamlakat mudofaa qobiliyatining asosini Qurolli Kuchlar, iqtisodiyot, aholi va hududning tajovuzni daf etishga doimiy tayyorligi tashkil etadi. Bu qoida “Mudofaa to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida mustahkamlab qo‘yilgan [1]. Harbiy xizmatchining shaxsiy qurolidan aniq va xavfsiz foydalana olishi esa bu tayyorgarlikning bevosita amaliy ifodasi hisoblanadi, shu sababli otish tayyorgarligi harbiy tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi [5].

Otish tayyorgarligi tizimi oliy harbiy ta’lim muassasalarida, harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chaqiruvgacha boshlang‘ich tayyorgarlik doirasida amalga oshiriladi. Masalan, maktablarning 10-sinfi uchun

darslikda otish tayyorgarligi alohida bo‘lim sifatida berilib, o‘quvchi kichik kalibrli hamda pnevmatik miltiqdan o‘q otish mashqlarini bajara olishi, otish mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalarini bilishi talab etilgan [6]. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida esa bakalavrlarni tayyorlashda “Qurollanish va otish” kafedrasi faoliyat yuritadi [8].

Shunga qaramay, mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy asoslarini bir butun tizim sifatida tahlil qilish, ularni me’yoriy talablar va xorijiy tadqiqotlar natijalari bilan bog‘lash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Harbiy ta’lim sohasidagi ilmiy ishlarda ham pedagogik innovatsiyalarni harbiy tayyorgarlik jarayoniga joriy etish va uni takomillashtirish omillarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi [9]. Mazkur maqolaning maqsadi – otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy va uslubiy jihatlarini tahlil qilib, ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: (1) otish tayyorgarligi mashg‘ulotining mohiyati va didaktik asoslarini aniqlash; (2) mashg‘ulotni tashkil etishga qo‘yiladigan me’yoriy va xavfsizlik talablarini tahlil qilish; (3) mashg‘ulotning uslubiy bosqichlarini asoslash; (4) xorijiy tajriba va zamonaviy trenajyor vositalarining o‘rnini baholash. Tadqiqotda me’yoriy hujjatlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlari tahlili, solishtirma-qiyosiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

OTISH TAYYORGARLIGI MASHG‘ULOTLARINING NAZARIY ASOSLARI

Otish tayyorgarligi – shaxsiy tarkibni o‘z qurolidan jangovar holatning turli sharoitlarida foydalanishga o‘rgatish jarayonidir. Maktab darsligida u qurolning moddiy qismlari, otish asoslari va qoidalari, otish mashqlarini bajarish kabi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan [6]. Rus tilidagi o‘quv dasturlarida “огневая подготовка” fani qurol tuzilishi, otish asoslari va qoidalari bilan bir qatorda “mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi”ni alohida o‘quv mavzusi sifatida o‘z ichiga oladi; bunday dasturlar [11] darslikka tayanadi. Boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarda esa otish tayyorgarligi, otish qoidalari va turli sharoitlarda otish xususiyatlari yagona o‘quv bo‘limi doirasida bayon etiladi [12].

Otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarining nazariy asosini umumiy pedagogika va harbiy pedagogika qonuniyatlari tashkil etadi. Umumiy pedagogikada o‘qitish jarayoni maqsad, mazmun, usul, vosita va natija birligi sifatida qaraladi [10]. Harbiy ta’lim sharoitida bu birlik quyidagi didaktik tamoyillarga tayanadi:

–Ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligi. Otish nazariyasi bo‘yicha bilim amaliy mashqlarda mustahkamlanadi; mashg‘ulot tuzilishi ham aynan shu uyg‘unlikni ta’minlashi lozim.

–Izchillik va murakkablashtirib borish. Mashqlar sodda (qurolsiz mashq, trenajyor, kichik kalibrli yoki pnevmatik qurol) dan murakkabga (jangovar qurol bilan o‘quv-otish mashqlari) tomon boradi.

–Ko‘rgazmalilik. Harakat namunasi o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatiladi, o‘quv plakatlari va o‘quv-mashq vositalari qo‘llaniladi.

–Onglilik va faollik. O‘quvchi har bir harakatning maqsadi va xatosini anglab bajarishi kerak.

–Mustahkamlik. Ko‘nikma bir martalik emas, tizimli takrorlash orqali shakllanadi.

–Individual yondashuv. Mashg‘ulotda o‘quvchining tayyorgarligi, jismoniy va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi.

–Xavfsizlik ustuvorligi. Hech bir o‘quv maqsadi xavfsizlik talablaridan ustun qo‘yilmaydi.

Otish ko‘nikmasi bilim, ko‘nikma va malaka bosqichlari orqali shakllanadi: avval o‘quvchi qurol va otish qoidalari to‘g‘risida bilim oladi, so‘ng ayrim harakatlarni (tayanish, nishonga olish, tepkini bosish) alohida bajarishni o‘rganadi, keyin esa bu harakatlar yaxlit, avtomatlashgan malakaga aylanadi. Shuning uchun mashg‘ulotni rejalashtirishda har bir bosqichga yetarli vaqt ajratish va keyingi bosqichga faqat oldingisi o‘zlashtirilgandan so‘ng o‘tish zarur.

ME’YORIY-HUQUQIY ASOS VA TASHKILIY TALABLAR

Otish mashg‘ulotlari yuqori xavf manbai bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ular qat’iy me’yoriy tartibda o‘tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrdagi 348-son qarorida ta’lim muassasalari o‘quvchilariga quroldan o‘q otishni o‘rgatish mashg‘ulotlari faqat o‘q otish maydonlarida yoki tirlarda, “O‘qli qurollardan o‘q otish

kursi” talablariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilishi belgilangan [2]. Qarorga ko‘ra, ta’lim muassasasi ixtiyoridagi ko‘chmas tirda tashkil etiladigan otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarida faqat pnevmatik va kichik kalibrli miltiqlar qo‘llaniladi [2].

Shu qarorda o‘q otish maydoni, harbiy qism va oliy harbiy ta’lim muassasasi ixtiyoridagi tirda o‘quvchilar ishtirokida boshlang‘ich o‘quv-otish mashqlarini o‘tkazish tartibi ham belgilangan: mashqlar faqat harbiy qism komandiri yoki oliy harbiy ta’lim muassasasi boshlig‘i tomonidan mashq ma’muriyati (o‘q otish mashg‘uloti rahbari, navbatchi shifokor, qurshov guruhi va shu kabilar) tayinlangandan so‘ng tashkillashtiriladi [2]. Demak, mashg‘ulotni tashkil etishning birinchi uslubiy sharti – mas’uliyat va vakolatlarning aniq taqsimlanishi.

Harbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan talablar o‘quvchilar kontingentiga qarab farqlanadi. Oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida talabalarning harbiy tayyorgarligi uchun 528 soat vaqt ajratiladi, mashg‘ulotlar harbiy kun usulida (mashg‘ulot kunida talabalar faqat harbiy tayyorgarlik bilan shug‘ullanadi) o‘tkaziladi, harbiy yig‘inlar davomida esa o‘qotar qurollardan otish mashqlari amaliy bajariladi [7]. 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son Prezident qarori esa o‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va Qurolli Kuchlar uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan [3]. Bu hujjatlar otish tayyorgarligini alohida mashq emas, balki yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning uzluksiz tizimi tarkibiy qismi sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

Oliy harbiy ta’lim sohasida o‘qituvchilarning kasbiy-uslubiy mahorati ham mashg‘ulot sifatini belgilovchi omildir. Harbiy pedagogik kadrlar tayyorlash masalalari bo‘yicha tadqiqotlarda bo‘lajak harbiy o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirishi ta’lim sifatining muhim sharti sifatida ko‘rsatilgan [9]; ofitserlar harbiy-o‘quv tarbiyasida harbiy ta’limning o‘rni ham ilmiy asoslangan [4].

MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY BOSQICHLARI

Otish tayyorgarligi mashg‘ulotini uslubiy jihatdan to‘rt bosqichga bo‘lib tashkil etish maqsadga muvofiq. Quyidagi jadvalda ushbu bosqichlar va ularning mazmuni umumlashtirilgan (jadval mavjud me’yoriy talablar va pedagogik tamoyillarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan).

1-jadval. Otish tayyorgarligi mashg‘ulotini tashkil etish bosqichlari

Bosqich	**Mazmuni**	**Kutiladigan natija**
1. Tayyorgarlik	Mavzu va maqsadni aniqlash, plan-konspekt tuzish, o‘quv-moddiy bazani (tir yoki o‘q otish maydoni, qurol, o‘quv anjomlari) tayyorlash, xavfsizlik tadbirlarini rejalashtirish	Mashg‘ulotning xavfsiz va izchil o‘tishi uchun shart-sharoit yaratilishi
2. Nazariy-tushuntirish	Masalaning mazmunini bayon etish, mashq bajarish tartibini namoyish qilish, xavfsizlik qoidalarini yodga solish	O‘quvchida harakatning to‘g‘ri tasavvuri shakllanishi
3. Amaliy mashq	Qurolsiz va trenajyorda mashq qilish, so‘ng o‘quv-otish mashqlarini bajarish; xatolarni joyida tuzatish	Ko‘nikmaning shakllanishi va mustahkamlanishi
4. Nazorat va tahlil	Natijalarni qayd etish, umumiy va yakka xatolarni tahlil qilish, baholash, uy vazifasi va keyingi mashg‘ulotga topshiriq berish	Ta’lim sifatini baholash va keyingi rejani tuzish uchun asos

Tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot rahbari plan-konspekt tuzadi. Plan-konspekt mavzuni ochishning izchilligini, o‘quv savollarining aniq va ravshan bayon etilishini ta’minlaydi; mashg‘ulot shakli va usuli esa mavzu mazmuni hamda o‘quv-moddiy baza mavjudligiga qarab belgilanadi. Otish mashg‘ulotlari uchun bunday baza sifatida tir va o‘q otish maydonlari ko‘rsatiladi [2].

Mashq turlari va ularning ketma-ketligi

Uslubiy jihatdan eng samarali ketma-ketlik quyidagicha: (a) qurolning tuzilishi va xavfsizlik qoidalarini o‘rganish; (b) qurolsiz va trenajyorda harakat elementlarini mashq qilish (tayanish, nishonga olish, nafas va tepkini bosishni muvofiqlashtirish); (c) pnevmatik yoki kichik kalibrli qurol bilan o‘quv-otish mashqlari; (d) belgilangan me’yorlar bo‘yicha jangovar qurol bilan nazorat mashqlari. Ushbu tartib me’yoriy

talablarda ko‘rsatilgan xavfsizlik chegaralariga (masalan, ta’lim muassasalari ko‘chmas tirida faqat pnevmatik va kichik kalibrli miltiqlardan foydalanish) to‘liq mos keladi [2].

O‘qitish usullari

Mashg‘ulotda an’anaviy usullar – tushuntirish, ko‘rsatish (namoyish), mashq qildirish va suhbat – o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llaniladi. Harbiy ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, interfaol usullar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirish yo‘li sifatida e’tirof etiladi [9]. Otish mashg‘ulotida interfaol yondashuv, masalan, mashq natijalarini guruh bilan birgalikda tahlil qilish, xatolarni o‘zaro baholash va vaziyatli topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

Nazorat va baholash

Nazorat joriy (har bir mashqdan so‘ng xatolarni tuzatish), oraliq va yakuniy (me’yorlarni topshirish) shakllarida olib boriladi. Natijalar qayd etiladi va o‘quvchining dinamikasi kuzatiladi. Masalan, 2025-yil 3-noyabrdagi 688-son qarorda saf amallari, jismoniy tayyorgarlik, o‘q otish tayyorgarligi va fuqaro muhofazasi bo‘yicha me’yorlarni bajarish baholash mezoni sifatida ko‘rsatilgan [17]; bu otish tayyorgarligini boshqa tayyorgarlik turlari bilan birgalikda baholash tamoyilini tasdiqlaydi.

XORIJIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY VOSITALAR

Otish tayyorgarligi metodikasi AQSh Qurolli Kuchlarida ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida uzoq vaqtdan beri o‘rganiladi. 1971-yilda nashr etilgan HumRRO hisobotida AQSh armiyasidagi piyoda miltiqdan otish tayyorgarligi doirasida 21 ta tajriba o‘tkazilgani, tadqiqotning asosiy e’tibori boshlang‘ich otish tayyorgarligiga qaratilgani qayd etilgan [14]. Keyingi tadqiqotlarda armiyada otish tayyorgarligi boshlang‘ich, ilg‘or va qism (bo‘linma) darajalari bo‘yicha alohida dasturlar sifatida tashkil etilgani ko‘rsatilgan [15]. Bu yondashuv bosqichma-bosqich o‘qitish tamoyiliga mos keladi.

2011-yilda e’lon qilingan Kaliforniya universiteti (UCLA) CRESST hisoboti AQSh Dengiz piyodalari korpusining miltiqdan otish tayyorgarligi bo‘yicha tadqiqotlarni sharhlagan: hisobot besh bo‘limdan iborat bo‘lib, ular orasida ma’lum masofadan otish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar sharhi, jangovar otish tayyorgarligining umumiy ko‘rinishi, otish mahoratini baholashda datchiklardan foydalanish va otish

trenajyor tizimlari tahlili mavjud [13]. Ya'ni xorijiy tajribada ko'nikmani sub'ektiv baholash o'rniga o'lchanadigan ko'rsatkichlar va texnik vositalarga tayaniladi.

O'zbekistonda ham otish trenajyorlaridan foydalanish masalasiga e'tibor ortib bormoqda. Yoshlarning harbiy tayyorgarligida otish trenajyorlarining ahamiyati va o'rni tahlil qilingan maqolada simulyatsiya tizimlarining afzalliklari, ularning yosh avlodga ijobiy ta'siri hamda psixologik va texnik tayyorgarlik darajasini oshirishdagi roli bayon etilgan [5]. 2024-yilda ommaviy axborot vositalarida Qurolli Kuchlar akademiyasi tashrifi chog'ida elektron tirda nishonlarga o'q otish bo'yicha ko'nikmalar berilgani ham qayd etilgan [16]. Trenajyor mashg'ulotning xavfsizligini oshiradi, sarflanadigan o'quv-moddiy resurslarni kamaytiradi va xatolarni darhol tahlil qilish imkonini beradi, biroq u jangovar qurol bilan haqiqiy otishni to'liq almashtirmaydi, faqat uni to'ldiradi.

SAMARADORLIK MEZONLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Tahlil natijalari asosida otish tayyorgarligi mashg'ulotlari samaradorligining quyidagi mezonlarini taklif etish mumkin: (1) xavfsizlik talablarining to'liq bajarilishi; (2) o'quv maqsadiga erishilganlik darajasi (me'yorlarni bajarish ko'rsatkichlari); (3) mashg'ulot vaqtidan oqilona foydalanish; (4) har bir o'quvchining mashq bajarishdagi faolligi; (5) xatolarni tahlil qilish va tuzatish sifati.

Takomillashtirish yo'nalishlari:

–mashg'ulot rahbarlarining pedagogik-uslubiy malakasini muntazam oshirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'rgatish [9];

–trenajyor va elektron tirlardan foydalanish ulushini oshirish, ularni jangovar qurol bilan otishdan oldingi tayyorlov bosqichi sifatida tizimli joriy etish [5], [13];

–otish ko'nikmasi dinamikasini kuzatish uchun yagona qayd etish va tahlil shakllarini joriy etish (xorijiy tajribada o'lchanadigan ko'rsatkichlarga tayanish [13]);

–oliy harbiy ta'lim, harbiy tayyorgarlik bo'linmalari va maktablardagi chaqiruvgacha tayyorgarlik o'rtasida mazmuniy uzviylikni ta'minlash [3], [6], [7];

–mashg'ulot xavfsizligini ta'minlashda mas'ul shaxslar (mashg'ulot rahbari, navbatchi shifokor, qurshov guruhi) vazifalarini aniq belgilash va ularning tayyorgarligini nazorat qilish [2].

XULOSA

Otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy va uslubiy tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, otish tayyorgarligi – bilim, ko‘nikma va malakani izchil shakllantiruvchi pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ilmiylik, izchillik, ko‘rgazmalilik, mustahkamlik, individual yondashuv va xavfsizlik ustuvorligi tamoyillariga amal qilishga bog‘liq.

Ikkinchidan, mashg‘ulotni tashkil etish me’yoriy talablar bilan qat’iy tartibga solingan: ta’lim muassasalarida otish mashg‘ulotlari faqat tir yoki o‘q otish maydonlarida, “O‘qli qurollardan o‘q otish kursi” talablariga muvofiq o‘tkaziladi, ko‘chmas tirda faqat pnevmatik va kichik kalibrli miltiqlar qo‘llaniladi, boshlang‘ich o‘quv-otish mashqlari esa belgilangan mansabdor shaxs buyrug‘i va mashq ma’muriyati tayinlangandan so‘ng tashkil etiladi.

Uchinchidan, mashg‘ulotni tayyorgarlik, nazariy-tushuntirish, amaliy mashq hamda nazorat va tahlil bosqichlariga ajratib tashkil etish, mashqlarni qurolsiz va trenajyordagi mashqdan pnevmatik yoki kichik kalibrli qurol bilan otishga, so‘ng jangovar qurol bilan nazorat mashqlariga o‘tkazish uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, xorijiy tadqiqotlar tajribasi ko‘nikmani o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar, ko‘p bosqichli dasturlar va trenajyor tizimlari asosida baholash samarali ekanini ko‘rsatadi; bu tajribani mahalliy sharoitga moslab joriy etish otish tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusi ilmiy ishlarda trenajyorda o‘qitishning jangovar otish natijalariga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash hamda turli o‘quv bo‘linmalari uchun mashg‘ulot modellari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil 3-iyulda qabul qilingan; yangi tahriri 2001-yil 11-maydagi Qonun bilan tasdiqlangan). URL: https://lex.uz/acts/-23629

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrdagi 348-son qarori “O‘zbekiston Respublikasi yoshlarini harbiy xizmatga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/docs/-2523455

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qarori “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz

4. Mirzaliyev Z.R. Ofitserlar harbiy-o‘quv tarbiyasida harbiy ta’lim. Oriens.uz, 2021 (17.12.2021). URL: https://www.oriens.uz/en/journal/article/ofitserlar-harbiyoquv-tarbiyasida-harbiy-talim/

5. Yoshlarni harbiy tayyorgarligida otish trenajyorlarining ahamiyati va o‘rni (ilmiy maqola). Zenodo. URL: https://zenodo.org/records/16731656

6. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. III bo‘lim. Otish tayyorgarligi. URL: https://uzedu.online/books/1406/1406-e9568.pdf

7. Harbiy kafedraga kim qanday qabul qilinadi? Norma.uz. URL: https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/harbiy_kafedraga_kim_qanday_qabul_qilinadi

8. Qurolli Kuchlar akademiyasiga o‘qishga kirish tartibi qanday? Oliygoh.uz, 17.03.2024. – URL: https://oliygoh.uz/post/qurolli-kuchlar-akademiyasiga-oqishga-kirish-tartibi-qanday

9. Alimov Sh. Preparing future military educators for modern professional activity // Society and Innovations. 2025. URL: https://inscience.uz/index.php/socinov/index

10. Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. 3-е изд. М.: Школа-Пресс, 2000.

11. Лупырь [и др.]. Огневая подготовка: учебник. Омск: Омская академия МВД России.

12. Михайлов, Ботыгин, Гинко. Основы военной службы: учебное пособие.

13. Chung G.K.W.K., Nagashima S.O., Delacruz G.C., Lee J.J., Wainess R., Baker E.L. Review of rifle marksmanship training research (CRESST Report 783). Los Angeles: UCLA, CRESST, 2011. – URL: https://cresst.org/publication/review-of-rifle-marksmanship-training-research/

14. Dees J.W., Magnei G.J., McCluskey M.R. An experimental review of basic combat rifle marksmanship: MARKSMAN, Phase I (HumRRO Report 71-4). – Alexandria, VA: Human Resources Research Organization, 1971. URL: https://apps.dtic.mil/sti/pdfs/AD0722394.pdf

15. Development of a rifle marksmanship training program for units (U.S. Army Training Research Laboratory technical report). URL: https://apps.dtic.mil/sti/pdfs/ADA170997.pdf

16. O‘zbek ofitserlari qanday tayyorlanadi: Qurolli Kuchlar akademiyasiga sayohat. – Kun.uz, 10.01.2024. URL: https://kun.uz/news/2024/01/10/ozbek-ofitserlari-qanday-tayyorlanadi-qurolli-kuchlar-akademiyasiga-sayohat

17. 688-son qaror (2025-yil 3-noyabr) “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari va “Jasorat maktablari” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7808667